

«TASDIQLAYMAN»  
Toshkent shahar statistika  
boshqarmasi boshlig‘i  
L. Mirsoatov  
“28” fevral 2025-yil



Toshkent shahar statistika boshqarmasida  
korrupsiyaga qarshi kurashish mavzusida  
bo‘lib o‘tgan yig‘ilish

BAYONI № 2

2025- yil 28-fevral

Toshkent sh.

**Yig‘ilish raisi:** L. Mirsoatov – boshqarma boshlig‘i.

**Qatnashganlar:** A. Azimov – Boshqarma boshlig‘ining o‘rinbosari

Boshqarma tarmoq bo‘limlari va tuman statistika  
bo‘limlari xodimlari

KUN TARTIBI:

1. O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 8-avgustdagи O‘RQ-788-son “Davlat fuqaroligi xizmati to‘g‘risidagi”gi qonun mohiyati bo‘yicha muhokamasi.

2.O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 5-iyundagi O‘RQ-931-son  
“Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi qonuni to‘g‘risida.

---

(L. Mirsoatov, A. Azimov, A. Mamatov, M. Ismoilxo‘jayeva, B. Shakarov,  
L. Mirsoatov)

Yig‘ilishda Toshkent shahar statistika boshqarmasi boshlig‘i L.Mirsoatov so‘zga chiqib, 2022-yil 8-avgustdagи O‘RQ-788-son “Davlat fuqarolik xizmati to‘g‘risidagi”gi Qonuni mazmun mohiyati qarori mazmun-mohiyatini boshqarma tarmoq bo‘limlari va tuman statistika bo‘limlari xodimlariga qisqacha tushunchalar berib o‘tdi.

Yig‘ilishda so‘zga chiqgan L.Mirsoatovning ta’kidlashicha: Davlat fuqarolik xizmati to‘g‘risidagi”gi qonunning maqsadi Davlat fuqarolik xizmati sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat ekanligi hamda Davlat fuqarolik xizmati lavozimlarining davlat reestriga kiritilgan lavozimlardagi davlat fuqarolik xizmatchilarining faoliyatiga nisbatan tatbiq etilishi haqida so‘zlandi. “Davlat fuqarolik xizmatchisi tomonidan xizmat safarlari, xalqaro va boshqa rasmiy tadbirlar munosabati bilan olinishi mumkin bo‘lgan sovg‘a qiymati, shuningdek uni tasarruf etish tartibi to‘g‘risidagi nizom Adliya vazirligida ro‘yxatdan o‘tkazilgan bo‘lib, nizomga ko‘ra davlat fuqarolik xizmatchisi O‘zbekistondan tashqaridagi xizmat safarlari, xalqaro va boshqa rasmiy tadbirlar, O‘zbekistonda o‘tkaziladigan xalqaro va boshqa rasmiy tadbirlarda sovg‘a olishi mumkin. O‘zbekistondagi

boshqa xizmat safarlarida sovg'a olish mumkin emasligi to'g'risida ma'lumot berildi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 5-iyundagi O'RQ-931-son "Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida"gi qonuniga muvofiq boshqarma va tuman bo'limi xodimlariga tushuncha berdi.

Davlat organi yoki boshqa tashkilot xodimi manfaatlar to'qnashuvi bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solish chog'ida:

maxsus bo'linmaga maslahat so'rab murojaat etish;

ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi deklaratsiyada ko'rsatilishi kerak bo'lgan ma'lumotlardan tashqari qo'shimcha ma'lumotlarni elektron yoki yozma shaklda taqdim etish huquqiga ega.

Davlat organining yoki boshqa tashkilotning xodimi:

o'z lavozim majburiyatlarini yoki xizmat vakolatlarini vijdonan bajarishi va ularning bajarilishiga ta'sir ko'rsatadigan yoki ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan o'z shaxsiy manfaatlari bilan bog'liq har qanday harakatlardan o'zini tiyishi;

lavozim majburiyatlarini yoki xizmat vakolatlarini bajarish chog'ida manfaatlar to'qnashuviga olib keladigan yoki olib kelishi mumkin bo'lgan shaxsiy manfaatdorlikka yo'l qo'ymasligi;

mavjud manfaatlar to'qnashuvi yuzaga kelgan taqdirda, o'z ish yurituvidagi hujjatlar bo'yicha qaror qabul qilinguniga qadar o'zining bevosita rahbarini (tashkilot rahbari — yuqori turuvchi rahbarni) yoki maxsus bo'linmani xabardon qilishi;

o'zining bevosita bo'ysunuvidagi xodimlarni yoki boshqa xodimlarni bevosita yoki bilvosita o'zining shaxsiy manfaatlarini ko'zlovchi harakatlarga (harakatsizlikka) majburlamasligi;

o'zi mehnat (xizmat) faoliyatini amalga oshirayctgan davlat organi yoki boshqa tashkilot nazorati ostidagi tashkilotdan yoki uning tarkibiy bo'linmasidan ishga qabul qilish to'g'risida takliflar kelib tushganligi holati haqida bir ish kuni ichida xabar berishi;

boshqa xodimlarga nisbatan o'ziga ma'lum bo'lgan manfaatlar to'qnashuvi hollari to'g'risida xabar berishi;

ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvini tartibga solish maqsadida maxsus bo'linmaning so'roviga ko'ra ma'lumotlar taqdim etishi shart.

Davlat organining yoki boshqa tashkilotning xodimi qonunchilikka muvofiq boshqa huquqlarga ega bo'lishi va uning zimmasida boshqa majburiyatlar ham bo'lishi mumkin.

Davlat organining yoki boshqa tashkilotning xodimiga aloqador shaxslar mazkur xodim mehnat (xizmat) faoliyatini amalga oshirayotgan davlat organi yoki boshqa tashkilot bilan munosabatlarga kirishganda:

manfaatlar to'qnashuvining oldini olish uchun maxsus bo'linmadan bepul maslahat olish;

davlat organining yoki boshqa tashkilotning manfaatlar to‘qnashuvini tartibga solish bo‘yicha harakatlari (harakatsizligi) yoki qarorlari ustidan shikoyat qilish huquqiga ega.

Davlat organining yoki boshqa tashkilotning xodimiga aloqador shaxslar mazkur xodim mehnat (xizmat) faoliyatini amalga oshirayotgan davlat organi yoki boshqa tashkilot bilan munosabatlarga kirishganda:

shaxsiy manfaatlarini ko‘zlab manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l qo‘ymasligi;

ehtimoliy manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi deklaratsiyani elektron yoki yozma shaklda to‘ldirishi, unga bila turib yolg‘on va noto‘g‘ri ma’lumotlarni kiritmasligi shart.

Davlat organining yoki boshqa tashkilotning xodimi bilan aloqador shaxslar tomonidan ehtimoliy manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi deklaratsiyada bila turib yolg‘on yoki noto‘g‘ri ma’lumotlar taqdim etilganligi ushbu Qonunda belgilangan huquqiy oqibatlarni keltirib chiqarishi mumkin.

Boshqarmaning tarmoq va tuman statistika bo‘limlari rahbarlari, xodimlari qonun hujjatlariga rioya etishi, o‘z mansab yoki xizmat majburiyatlarini beg‘arazlik bilan, xolisona, vijdonan, odob-axloq qoidalariga rioya etgan holda bajarishi hamda korrupsiyaga oid biror-bir huquqbazarlikni sodir etishdan yoki bunday huquqbazarliklarni sodir etish uchun shart-sharoitlar yaratadigan boshqa har qanday harakatlardan o‘zini tiyishi shartligi yuzasidan ogohlantirildi.

Shuningdek, 2024-yilda korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha idoraviy kompleks chora-tadbirlar rejası ijrosini ta‘minlash yuzasidan boshqarma hamda tuman statistika bo‘limlari majburiyatları to‘g‘risida bat afsil ma’lumotlar berildi. Ushbu chora-tadbirlar rejasida belgilangan vazifalarni o‘z vaqtida bajarish yuzasidan boshqarmaning tarmoq va tuman statistika bo‘limlariga tegishli topshiriqlar berilganligi qayd etildi.

Bundan tashqari, joylarda tashkil qilinayotgan profilaktika ishlarini tashkil qilishda yuqoridaq chora-tadbirlar rejasida berilgan topshiriqlarni qat’iy amalga oshirishlari, tadbirkorlik sub’ektlari faoliyatini qo‘llab-quvvatlash borasida qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti hujjatlari va Hukumat qarorlari, statistika sohasiga oid qonunchilik va me’yoriy-huquqiy hujjatlar talablarini yangi tashkil topgan hamda faoliyat ko‘rsatayotgan tadbirkorlik sub’ektlariga tushuntirish ishlarini kuchaytirish, bunda joylardagi seminar uchrashuvlar va “Ochiq eshiklar kuni”da tadbirkorlik sub’ektlariga davlat statistika hisobotlarini belgilangan muddatlarda taqdim etishlari lozimligi to‘g‘risida doimiy ravishda tushuntirishlar berib borishlari yuzasidan topshiriqlar berib o‘tildi.

Shu bilan birga, boshqarma hamda tuman statistika bo‘limlari xodimlarining odob-axloq qoidalariga amal qilishlari to‘g‘risida to‘xtalib o‘tildi.

Kun tartibidagi masalalar va ular to‘g‘risidagi fikr-mulohazalardan kelib chiqib yig‘ilish

### **Q A R O R   Q I L A D I:**

1. Toshkent shahar statistika boshqarmasi boshlig‘i L.Mirsoatov so‘zga chiqib, O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 8-avgustdagি O‘RQ-788-son “Davlat fuqaroligi xizmati to‘g‘risidagi”gi qonuni va O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 5-iyundagi O‘RQ-931-son “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi qonuni yuzasidan hisoboti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Boshqarmaning tarmoq va tuman statistika bo‘limlari boshliqlariga:

Toshkent shahar statistika boshqarmasi boshlig‘i L.Mirsoatov so‘zga chiqib, O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 8-avgustdagи O‘RQ-788-son “Davlat fuqaroligi xizmati to‘g‘risidagi”gi qonuni va O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 5-iyundagi O‘RQ-931-son “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi qonuni bandlarida berilgan barcha topshiriqlar so‘zsiz bajarilishi ta’milansin hamda amalga oshirilgan ishlar bo‘yicha ma’lumotlar rahbariyatga kiritilsin.

**Yig‘ilish kotibi**

**A. Mamatov**